

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR LIRIKASIDA METAFORALAR
LINGVOPOETIKASI**

**ЛИНГВОПОЭТИКА МЕТАФОР В ЛИРИКЕ ЗАХИРИДДИНА
МУХАММАДА БАБУРА**

**LINGUPOETICS OF METAPHORS IN THE LYRICS OF ZAHIRIDDIN
MUHAMMAD BABUR**

Sayidova Gulrux Yoqubovna

filologiya fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Rustamova Sanobar Murod jon qizi

BuxDU 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Metaforalarning o'rganilishi, tasniflari, turlari va mumtoz adabiyotdagi shakli haqidagi ma'lumotlar soha mutaxassislarini hamisha qiziqtirib kelgan. Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyatiga badiiy va lingvistik jihatdan yondashilib, uning she'rlarida qo'llanilgan metaforalarning xususiyati, o'ziga xos jihatlari, turlari tadqiq qilinadi. Bundan tashqari, metaforalarning Z.M. Bobur she'riyatida tutgan o'rni, ahamiyati haqida batafsil ma'lumot berilib, yuqoridagi fikrlarga isbot tariqasida Z.M. Bobur she'rlaridan namunalar keltirilib, tahlil qilinadi. Metaforalarning Z.M. Bobur ijodidan o'rin olishi muallif ijodining mazmunini yanada kuchaytirishga yordam bergani maqolada o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: metafora, an'anaviy metaforalar, individual metaforalar, istiora, antropomorf, sotsiomorf, zoomorf, fitomorf, abiotik, xronomorf va artefaktual metaforalar;

Абстрактный. Изучение метафор, их классификаций, типов и форм в классической литературе всегда представляло интерес для специалистов в этой области. В данной статье рассматривается поэзия Захириддина Мухаммада Бабура с художественной и лингвистической точки зрения, а также исследуются природа, уникальные аспекты и типы метафор, используемых в его стихотворениях. Кроме того, дана подробная информация о роли и значении метафор в творчестве З.М. Поэзия Бабура и примеры из З.М. В качестве доказательства вышеизложенных положений цитируются и анализируются стихи Бабура. В статье отражен тот факт, что включение метафоры в творчество З.М. Бобур помог еще больше усилить содержание творчества автора.

Ключевые слова: метафора, традиционные метафоры, индивидуальные метафоры, аллегория, антропоморфные, социоморфные, зооморфные, фитоморфные, абиотические, хрономорфные и артефактные метафоры;

Abstract. *The study of metaphors, their classification, types and form in classical literature have always been of interest to specialists in the field. This article approaches the poetry of Zahiriddin Muhammad Babur from an artistic and linguistic perspective, and examines the nature, specific aspects and types of metaphors used in his poems. In addition, detailed information is provided on the role and significance of metaphors in Z.M. Babur's poetry, and examples from Z.M. Babur's poems are cited and analyzed as evidence for the above points. The article reflects the fact that the presence of metaphors in Z.M. Babur's work helped to further strengthen the content of the author's work.*

Keywords: *metaphor, traditional metaphors, individual metaphors, allegory, anthropomorphic, sociomorphic, zoomorphic, phytomorphic, abiotic, chronomorphic and artifactual metaphors;*

Kirish. Tilning butun bunyodkorlik kuchi nutq go'zalligida namoyon bo'lishi sir emas. Nutqning jozibador va ta'sirchanligini oshirishda iboralar, perifrastalar, bo'yoqdor so'zlar, qanotli jumlarlar, maqol-u matallar kabi metaforalarning ham xizmati beqiyos. Tilshunoslik tarixida metaforalar qadimdan o'rganilib kelingan va hozirda ham uning yangidan yangi qirralari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq qilinmoqda. Metaforalarning tadqiqi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu boradagi dastlabki o'rganishlar Arastu davridan boshlanganini kuzatishimiz mumkin. Aksariyat tilshunoslar mazkur termin tilga ritorika orqali kirib kelgan deb hisoblashadi. Manbalarga ko'ra, "metafora" tushunchasi haqidagi ilk ma'lumot Izokrat tomonidan yaratilgan "Evagorus" asarida uchraydi. Metaforalar borasidagi tadqiqotlarning eng gullab yashnagan davri XX asr boshlariga to'g'ri keldi. Jahon tilshunosligida A. Richard, Y. Kormak, M. Blek, S. Pepper kabi olimlar metaforaga psixolingvistik jihatdan yondashishdi va metaforalarga xos asosiy xususiyatlarni aniqladilar. Xorij olimlaridan N. D. Arutyunova esa metaforalar xususida keng tadqiqot ishlari olib bordi va ularning funktsionalligi to'g'risida muhim ma'lumotlarni berib, mazkur birliklarning qo'llanilishi bilan bog'liq keyingi ilmiy ishlarga yo'l ochib berdi.

O'zbek tilshunoslarini ham metafora borasidagi ilmiy qarashlar befarq qoldirmagan. Xalq tilida, notiqlar, ijodkorlar va hatto so'zamol shaxslar nutqida yaratilayotgan yangidan yangi metaforalar hanuzgacha tadqiqotchilarda bu boradagi ilmiy izlanishlarni davom ettirishni ta'minlamoqda. Mazkur sohadagi jiddiy tadqiqotlar sifatida M. Mirtojdiyev, Sh. Rahmatullayev, I. Shukurov, D. Xo'jayeva, Z. Tohirova va R. Yunusovalarning ishlarini alohida sanab o'tish joiz. Shuningdek, Sh. Mahmaraimovanning "O'zbek tili teomorfik metaforalarning qisqacha konseptual lug'ati" qo'llanmasi va G. Qobuljonovanning "Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi ushbu yo'nalishdagi o'ziga xos yangilik bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Metafora ta'rifi har bir tilshunos olim o'ziga xos tarzda yondashgan. Masalan, Aristotel va E. Kassirer metaforani nom ko'chishining istalgan shaklidir deb hisoblaydilar. Arastu o'zining "Poetika" asarida mazkur termin xususida: "Metafora yuksak darajada aniqlik, yoqimlilik va ohorlilik jozibasiga ega, undan o'rinli foydalanish nutqni bezaydi", -deb yozgan. Potebnya va uning davomchilari metaforani kichraygan o'xshatish deya ta'riflaydilar. N.D. Arutyunova, A. Vejbitskaya va bir qator o'zbek tilshunoslarining fikricha, metafora nom

ko'chishining bir usulidir. Aynan shu qarash sohaning darslik va o'quv qo'llanmalariga ham ko'chgan.

O'zbek tilshunoslaridan Sh. Shoabdurahmonov, M. Asqarova va boshqalar mazkur tushunchaga "Hozirgi o'zbek adabiy tili.1-qism" kitobida: "Biror narsa, belgi yoki harakatning nomini o'zaro o'xshashligi bo'lgan boshqa narsa, belgi yoki harakatga ko'chirish metafora usuli bilan yangi ma'no hosil qilish deyiladi",-deya ta'rif bergan. "Hozirgi adabiy o'zbek tili" darsligida esa prof. Sh. Rahmatullayev atamani: "Biror predmet, belgi, harakatning nomi boshqasiga o'zaro tashqi (shakli, rangi kabi jihatlari bilan) o'xshashligi asosida ko'chirilsa, metafora yo'li bilan ko'chirish deyiladi (yunoncha *metaphora* – "ko'chirish")",- deb talqin qilgan. Tilshunos olim D. Baxronovning fikricha, metafora metafora bo'lib shakllanguncha, olamning sodda ko'rinishidan lisoniy ko'rinishigacha aylanadi, ya'ni so'z o'z-o'zidan metaforaga o'zgarmaydi. Ular qaysi jamiyatga tegishli bo'lsa, o'sha jamiyatning ko'zgusiga va madaniy mahsuliga aylanadi. Qisqa qilib aytganda, "Metafora (gr. *metaphora* – ko'chirish) – narsa va hodisalar mohiyatidagi o'xshashlik asosida biror leksemaning o'z xususiy ifodalanmishidan boshqa narsa va hodisalarni atash uchun ishlatilishi"[6, 156].

Metafora shunchaki o'xshatish emas. U hosil bo'lishi uchun bir qancha qoidalarga amal qilinishi kerak. Metaforada so'zlar, asosan, shakli, mohiyati, bajaradigan vazifasi yoki inson tafakkuridagi assotsiatsiyasiga ko'ra o'xshashlik hosil qiladi. Shu jihati bilan metaforalar o'xshatishning o'ziga xos yuksak darajasini yuzaga keltiradi. Lekin metaforada o'xshatish vositasi va o'xshatish sababi aniq ko'rsatilmagani uchun u oddiy o'xshatishdan farq qiladi.

B. Umurqulov o'zining "Poetik nutq leksikasi" asarida metaforani til va badiiy nutqda qo'llanilishi jihatidan ikki turga ajratadi: 1) til metaforasi; 2) badiiy metafora. Til metaforasi badiiy metaforadan o'xshashlikning formasiga ko'ra farqlanadi. Ya'ni, olimning fikricha, til metaforasida ikki predmet o'rtasidagi o'xshashlik aniq ko'rinib tursa, badiiy metaforada esa bu o'xshashlik yashirin va obrazli tarzda bo'ladi. Metaforalarning qo'llanilishi jihatidan an'anaviy (umumpoetik) va individual metaforalarga bo'linishi to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar ham ushbu kitobda keltirib o'tilgan.

Asosiy qism. Metaforalar tadqiqot obyektiga ko'ra bir nechta turlarga ajratiladi. Bular: antropomorf, sotsiomorf, zoomorf, fitomorf, abiotik, xronomorf va artefaktual kabildir (bu sirani yana davom ettirish mumkin).

Antropomorf metafora – afsonaviy qahramonlar, tarixda yashab o'tgan mashhur shaxslar nomlari asosida hosil qilingan metaforadir. Masalan:

O'qi zaxmini ko'rub har yon tanimda el degay

Kim, bu ko'hi dardning ul lolai Nu'monidur [12, 25].

Ushbu baytdagi lolayi Nu'mon izofa shaklidagi metaforani yuzaga keltirgan. Manbalarda berilishicha, Imom A'zam laqabi bilan mashhur bo'lgan arab xalifalaridan biri No'mon ibn Sobit ko'ksidan oqqan qondan lola unib chiqadi. Demak, lola gulining paydo bo'lishi No'mon nomi bilan bog'lanadi. Ba'zi ma'lumotlarda esa haqiqatdan ham No'mon degan podsho bo'lganligi va u tog'dan lola olib kelib, parvarish qilganligi uchun lolayi No'mon deb atalgani aytiladi. Shoir ushbu baytda afsonaviy ma'lumotlarga tayangan holda hijron, ayriliqdan azoblangan qalbini lolai Numonga qiyoslaydi. Ya'ni yorning qiyonoq o'qlaridan

oshiqning butun tanasi azob chekmoqda. Uning dardlari tog`dek. Bu dardlar, bu ayriliqlar oqibatida jisimidan qip-qizil qon lola guli singari oqmoqda tasvirlamoqda.

Sotsiomorf metafora – jamiyat bilan bog`liq tushunchalar va ijtimoiy tuzilmalar asosida yaratilgan metafora turi. Jumladan:

G`am cheriki behaddur, chorasi budur, Bobur,

Bodani ko`mak keltur, jomni himoyat tut [12, 20].

Shoirning lirik qahramon tilidan aytishicha, tiriklikning g`am-tashvishlari shu qadar ko`pki, u butun boshli g`am qo`shiniga o`xshaydi. G`am qo`shinining yetkazadigan zarari, keltiradigan tashvishi chek-chegarasizdir. Unga qarshi eng yaxshi chora esa boda ichib chalg`imoq hamda boda idishidan himoya tilamoqdir. Fikrimizcha, bu yerda boda “tiriklik mayi” ma`nosida qo`llanilgan.

Zoomorf metafora – insonlarga xos bo`lgan fe`l-atvor yoki xususiyatlarning majoziy obrazlarda, jumladan, hayvonlarda aks etishi:

Boburo, hargiz quloq she`ringg`a ul gul solmadi,

Gulga ne parvoki, yuz faryod qilsa andalib [12, 19].

Tushunishimizcha, lirik qahramon guldek go`zal, nafis, ohorli qizga oshiq. Doimgidek mashuqa oshiqning holiga beparvo. Mashuqaning beparvoligidan aziyat chekayotgan oshiq, ya`ni lirik qahramon tilidan “gul ishqida oh chekayotgan bulbul (andalib)ning holi gul uchun beta`sir” ekanligi aytilmoqda. Baytdagi “andalib” metaforasi orqali hijronda yonayotgan oshiq holati tasvirlangan.

Abiotik metafora – insonlardagi biror jihat (xarakter, ko`rinish)ning tabiatdagi jonsiz narsa(quyosh, havo, tuproq kabi)larga qiyoslanishi. Misol uchun:

Xurshid yuzung birla bu kun, ey mahi tobon,

Da`vo gar etar bo`lg`usi kun, so`ngra pushaymon. [12, 43].

Mumtoz she`riyatda yor go`zalligi jihatidan oyga yoxud quyoshga o`xshatilishi ma`lum. Shuningdek, yorning latofatda tengsiz va yagona ekanligini ta`kidlash uchun ham uni ushbu osmon jismlariga qiyos qilishadi. Yuqoridagi baytda ham shu maqsadni ko`zda tutgan holda mashuqa obrazi quyoshga mengzalgan.

Xronomorf metafora – bu vaqt tushunchasi zamirida shakllangan metafora bo`lib, unda vaqt turli shakllarga, jarayonlarga yoki moddiy obyektlarga o`xshatiladi. Quyidagi baytda buni ko`rishimiz mumkin:

Ey gul, meni zor etmaki, husnuing chamanida,

Ko`zni yumub ochquncha bu gulzor topilmas [12, 30].

Bu foniy dunyo shunchalik bebahoki, uning qanday tez o`tganini inson ba`zan sezmay qoladi. Odamdagi yoshlik, go`zallik, kuch-quvvat kabi narsalar ham xuddi shunday o`tkinchi va aldamchidir. Shuning uchun ularga ishonib, g`ururlanib bo`lmaydi. Mazkur misralarda ham lirik qahramon yoriga murojaat qilib, o`z husniga ko`p bino qo`ymasligi, bu chiroy o`tkinchiligi va tezda yo`qolishi mumkinligini uqtirishga harakat qilmoqda.

Artefaktual metafora – abstrakt tushunchalar yoki tabiiy hodisalar odamlar tomonidan yaratilgan (sun`iy) narsalar bilan taqqoslanadi va o`ziga xos o`xshatish hosil qilinadi.

Bexato elga otib g`amza o`qin,

Bizga yetganda xato qilg`aysen [12, 49].

G'amza – yorning noz-u karashmasi yoki nozli qarashidir. Oshiqlar mashuqasining g'amzasini ko'rganda, ya'ni o'tli nigohini ko'rishganda bir muddat aql-hushlarini yo'qotib qo'yishadi. Go'yoki yaralangandek jonsiz qotib qolishadi. Shu sababli ham ko'p hollarda mumtoz adabiyot vakillari yor g'amzasini o'qqa o'xshatishgan.

Fitomorf metaforalarda kishilarga xos bo'lgan narsa va holatlar o'simliklar orqali aks ettiriladi. Aniqroq qilib aytganda: “Fitomorf metafora (FM) lar antroposentrik metaforalar sirasida o'ziga xos mavqeyi bilan ajralib turuvchi, daraxt, o'simliklar va ularning qismlari nomini anglatuvchi, ya'ni fitonimik leksikaning insonga nisbatan qo'llanishi natijasida hosil bo'lgan metaforik nomlanishi bo'lib, insonning borliq haqidagi bilimlari yaxlitligini ta'minlaydi”[11, 19].

She'riyatda ko'pincha, yorga nisbatan gul, sarv, shamshod va lola singari metaforalar qo'llanganini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, mumtoz she'riyatda bunday ifodalar ko'p uchraydi va ular an'anaviy metaforalar hisoblanadi. Bobur ijodida ham xuddi shunday fitomorf metaforalarni uchratishimiz mumkin. Masalan:

Yuzung, ey sarv, jonim gulshanining toza gulzori,

Qading, ey gul, hayotim bog'ining sarvi ravonidir [12, 28].

Ushbu baytda mashuqaning yuzi gulga, qaddi esa sarvga o'xshatilmoqda. Yorning yuzi, asosan, chiroy jihatidan gulga, qaddi bo'lsa tikligi jihatidan sarvga qiyoslanadi.

“Fitonimik metafora deganda, faqat o'simlik nomlari asosidagi nom ko'chishlar nazarda tutiladi: “chinor”-uzoq umr, “sarv”-qad, “lola”-chiroy kabi. Biroq fitomorfik metaforada o'simlik nomlari, xususiyatlari, qismlari, hosil, mahsulot nomlarining metaforik qo'llanilishi nazarda tutiladi: “danak”-nevara, “ildiz”-ajdodlar, “meva”-farzand kabi” [7, 11].

Tilshunoslik va adabiyot o'zaro hamohang bo'lib, bittasidagi tushuncha ikkinchisida ham xuddi o'sha ma'noni ifodalaydi va bir xil vazifani bajarishga xizmat qiladi. Faqat nomlanishdagina bir-biridan farq qiladi. Misol uchun metaforalar tilda ko'chma ma'noni ifodalash maqsadida qo'llanilsa, adabiyotda ham aynan shu jihatdan foydalaniladi. Faqat lingvistikadagi “metafora” atamasi adabiyotshunoslikda “istiora” deb ataladi.

Istiora san'atiga avvaldan qiziqish yuqori bo'lgan va ko'plab adabiyotchilar unga turlicha tavsif berishgan. Masalan, A. Husayniy o'zining “Badoyi' us-sanoyi” asarida shunday ta'rif keltirib o'tadi: “Istiora majozning bir nav'idur. Haqiqat lafzini o'z yasog'i, ya'ni nimani mo'ljallab yasag'on bo'lsalar o'shul ma'noda qo'llamoqtin iborattur. Majoz lafzini o'z yasog'idin o'zga ma'noda yasog'u lafzu ushul ma'no orasindag'i biror aloqa-yu munosabatg'a asoslanaroq qo'llamoqtin iborattur, o'z yasog'ida tushunmakka moni' bo'lg'uchi jumladoshi keltirmak sharti bila”. Istiora adabiyotchilar uchun eskirmas mavzu bo'lib, XX-XXI asrlarda ham bir qancha tadqiqotlar mavzusiga aylanmoqda. Izlanishlar davomida esa uning yangicha tavsiflari va qirralari kashf qilinmoqda. Jumladan, 1926-yilda nashr qilingan “Adabiyot qoidalari” kitobida A. Fitrat istiorani shunday tasnif qiladi: “Bir so'zning o'z ma'nosidan boshqa bir ma'no uchun ishlatilmakidir. Shul shart bilankim, u so'zning o'z ma'nosi bilan yangi ma'nosi orasida bir turli o'xshashli bo'lsun”. A. Hojiahmedov ham o'zining “She'riy san'atlar va mumtoz qofiya” kitobida Fitratning fikriga yaqin bo'lgan mulohazalarni bildirib o'tadi: “Istiora arabcha so'z bo'lib, “biron narsani omonatga (vaqtincha) olmoq” degan ma'noni ifodalab, adabiy asarda so'zni o'z ma'nosidan

boshqa bir ma'noda, aniqrog'i uni haqiqiy ma'nosida emas, balki majoziy bir ma'noda qo'llash san'ati sanaladi. Ko'pincha bu ikki ma'no o'zaro o'xshashlikka asoslanadi. Shu jihatdan istiora tashbih san'atiga yaqin turadi". Adabiyotshunos Y. Is'hoqov esa "So'z san'ati so'zligi" ilmiy risolasida istioraning xususiyatiga ko'ra, ochiq istiora (yoki istiorai bittasreh) va yopiq istiora (yoki istiorai izofiy)ga bo'linishini aytib o'tadi. Ochiq istioraga muallif shunday ta'rif beradi: "Agar istiora obyekti (o'xshatilayotgan narsa) tilga olinmay, faqat istioralanuvchigina zikr qilinsa, bunday usul ochiq istiora – istiorai bittasreh deyiladi." Masalan:

Ul sarvg'a karam qilibon yetkur, ey sabo,
Bobur niyozini yer o'pub xo'b ado bila [12, 89].

Birinchi misrada "sarv" so'zi orqali yorning qaddi nazarda tutilgan. Qad so'zi ishlatilmay, faqat o'xshayotgan narsa (sarv) ishlatilgani bois mazkur o'rinda ochiq istiora san'ati yuzaga kelgan. "Sarv – janubiy o'lkalarda tik o'sadigan, ignabargli va doim yashil daraxt. Asl vatani Livan, Kipr va Sitsiliya orollari hisoblanadi. Ushbu daraxt qadimdan turli ma'nolarning ramzi va timsoli bo'lib kelgan. Masalan, yunon asotirlarida sarv ta'ziya va ayriliq ramzi sanaladi. "Tavrot"ga ko'ra sarv abadiylik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun payg'ambar Nuh o'z kemasini sarv yog'ochidan yasaydi. Zardushtiylar e'tiqodiga ko'ra sarvni Zardusht Kashmirdan olib kelgan. Arab xalqi bu daraxtni *shajarat ul-hayot* (tiriklik daraxti) deb ataydi.

Sarvning bir necha turi bor. Sarvi sihiy ikki shoxi tik o'sadigan sarv bo'lsa, sarvi noz shoxlari odam qo'llaridek ikki tomondan pastga moyil sarv turidir. Sarvi ozod esa shox-shabbasiz, tik o'sadi. Xalq orasidagi ishonchlarga ko'ra, qayerda sarv bo'lsa, o'sha yerga ilon in quradi. Shuning uchun ko'p hollarda yorning xush qomati sarvga, sochi esa ilonga o'xshatiladi" [7, 18].

Yopiq istiora borasida olim quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan: "Yopiq istiorada, ochiq istioradan farqli o'laroq, istioralanuvchi zikr etilmaydi, balki uning biror sifati, xulq-atvori, uzv-a'zosi izofat sifatida keltiriladi." Misol uchun:

Oraz-u qaddingni ta'rif etsalar yuz yil, hanuz,
Ey yuzi gul, sarvqad, yuzdin biri aytilmag'ay [12, 61].

Ushbu baytda yorning yuzi gulga, qaddi esa sarvga qiyoslangan va ikkalasi (o'xshatilmish va o'xshamish) ham qo'llanilgani uchun yopiq istiora hosil bo'lgan.

Xulosa. Metaforalarsiz nutq jonsiz tan kabidir yoxud metafora qo'llanilmagan nutq iforsiz gul kabidir. Demak, metaforalar nutqning jilosi, ko'rki va zavq baxsh etuvchi jonidir. Y. Sayidov o'zining "Jadid badiiy asarlari leksikasi" nomli doktorlik dissertatsiyasida metaforalar haqida shunday deydi: "Haqiqatan ham metaforalar his-tuyg'u va kayfiyatni aniq, yorqin, ixcham, ta'sirbaxsh tarzda yetkazib berish imkonini beradi. U o'zining ixchamligi, soddaligi, semantik jihatdan serma'noliligi bilan she'riy matnning qisqa shakliga juda mos keladi va uning badiiyatini oshirishga muhim omil bo'lib xizmat qiladi". Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, Bobur ijodidagi metaforalar rang-barangligi va ular orqali hosil qilingan go'zal tasvirlari bilan kitobxon e'tiborini tezda o'ziga jalb etadi. Uning ijodida nafaqat metaforalar, balki boshqa she'riy san'atlarni ham qo'llashdan maqsad oddiy bo'lmay, balki go'zal badiiy tasvirni yaratish bo'lgan. Albatta, bu uning kuchli ijodiy mahoratidan yorqin dalolatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. II том. – Т.: Фан, 1983. – 642 б.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. III том. – Т.: Фан, 1983. – 622 б.
3. Аристотел. Поетика. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 149 б.
4. Ҳожиаҳмедов А. Шеърини санъатлар ва мумтоз қофия. – Т.: Шарқ, 1998. – 160 б.
5. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Зарқалам, 2006. – 125 б.
6. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. – Т.: Tafakkur bo'stoni. 2018. – 202 b.
7. Muqimova G. Fitomorf metaforalarning lingvopoetik, lingvokulturologik xususiyatlari va leksikografik talqini. Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2023. – 51 b.
8. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Т.: Мумтоз сўз, 2010. – 296 б.
9. Сайидов Ё. Жадид бадиий асарлари лексикаси. Филол. фанлари доктори... диссер. – Бухоро, 2018. – 304 б.
10. Умуркулов Б. Поетик нутқ лексикаси. – Т.: Фан, 1990. – 109 б.
11. Xolnazarov U. Nasriy nutqda metaforalarning lingvokognitiv, lingvomadaniy xususiyatlari (T. Murod qissalari misolida). Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Termiz, 2023. – 63 b.
12. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Девон. – Т.: Фан, 1993. – 143 б.
13. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – 443 б.